



ABDULLA ORIPOV IJODIDA VATAN MADHI

Qudratova Manija Shohmansur qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich 406-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining betakror shoirlaridan biri bo'lgan Abdulla Oripovning adabiyotdagi so'z qo'llash mahorati Vatan mavzusida yorqin bayon qilingan. Uning asarlari hayothaxsh, o'zbek xalqining tilidan yozilgan bo'lib har bir yosh avlod uchun zabardast dasturiyal bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, she'riyat, ona-Vatan, tafakkur, iste'dod, poetik ifoda, "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", "O'zbekiston".

Har qanday iste'dodli, milliy shoir badiiy tafakkur vositasida o'ziga xos san'atkor ekanini ko'rsatadi. Tabiiyki, bunday ijodkor asarlarida badiiy tasvir vositalarini mohirona qo'llash, badiiy tilning tasvir imkoniyatlari, ayniqsa, poetik ifodaning xalqona tarzi yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, muayyan xalqning milliy xususiyatlari mavhum tushuncha emas, balki tilidek o'ta aniq va individual hodisada reallashadi. Har qanday badiiy asar qaysi millat hayoti haqida hikoya qilsa, qaysi millatga mansub insonning his-tuyg'ularini ifodalasa, shu xalqning ruhini, an'analarini, milliy o'ziga xosligini qabariq holda ifodalashi tabiiydir. Har qanday badiiy asarning sehrli, jozibali, maftunkorligi, o'z navbatida, badiiy asar tiliga, ruhiyatiga hamda ijodkorning individual uslubiga bog'liq. Zero, xalq yozuvchisi Pirimkul Qodirov: "Har bir tilning qudrati va afzaliyatları shu tilni yaratgan xalqning o'zi bilan birga yashasagina rivojlanib boradi. O'z xalqidan va sarzaminidan uzilib qolgan til tabiiy kuchini, boyligi va go'zalligini yo'qota boshlaydi. Demak, el borki, til bor. Eldan uzilmagan odam tildan ham ayrimaydi", deb ta'kidlaydi. Ijod ahli go'zal va betakror iboralarni, matal, maqol va rivoyatlarni, albatta, elidan, xalq ichidan topadi; ko'pchilik biroz e'tiborsiz bo'lgan yoki ustini biroz chang bosgan noyob durdonalarni qayta yaraqlatib o'z xalqiga taqdim etadi. Natijada, ifodalarning xalqona ekanligi, el diligiga yaqinligi uchun tahsinlar eshitadi. Chinakam xalq yozuvchisi, shoiri sifatida shuhrat qozonadi. O'zbek xalqining shunday ehtiromiga sazovor bo'lgan, xalq dilidan, qalbidan o'z she'rlari bilan chuqur o'rinn olgan shoirlardan biri shubhasiz Abdulla Oripovdir. Mustabid tuzum davrida ham bu shoir birov larga taqlid qilishdan, to'ti bo'lishdan orlandi; "bulbul kuyini" o'z so'zi bilan o'zbekona go'zal tilda kuylashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Har bir ijodkor hayotida Vatan so'zi, ona-Vatan tushunchasi judayam keng ma'noda, shuningdek, tasvirlab va ta'riflab bo'lmas shaklda yoziladi va shu borada misralar keltiriladi. Shunday go'zal va betakror zaminda yashab, uning beg'ubor osmoni, zilol suvlari, toza va musaffo osmon, xushmanzara bog'lar, go'zal va betakror go'shalar, shinam va tinch xonardon, ajoyib manzarali bog'lar, to'kinlik va sochinlik, hashamatli binolar-u katta imoratlar, tinchlik va osoyishtalik bor bu zaminda Vatan haqida ijod qilmagan, she'r yozmagan, qalam tebratmagan ijodkorning o'zi bo'lmasa



kerak. Haqiqatdan ham, bu go'zal diyor, bu betakror va jannatmakon o'lka bizning go'shamiz, bizning ona-Vatanimiz O'zbekistonimizdir. Abdulla Oripovning bu mavzuda yozgan she'rlarida Vatan hissi, ona-Vatan tuyg'usi go'zal qilib tasvirlangan.

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.
Nechun Vatan, deya yer-u osmonin,
Muqaddas atayman, atayman tanho.

Aslida dunyoda tanho nima bor?
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi, sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Bog'larin jannat deb, ko'z-ko'z etaman.
Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men,
O'paman, tuprog'ing bebaho, Vatan!...

Insonlar o'z tug'ilgan joyi va makonini juda yaxshi ko'rishadi. Mening tug'ilgan uyim, makonim bu mening Vatanim hisoblanadi. Vatan ostonadan, har bir insonning o'z uyidan boshlanadi. Jajji oyoqlaringiz bilan qadam bosib, katta hayotga qadam qo'yan vaqtingizda ham mana shunday darajaga kelganingizda ham avvalambor, ana shu siz yurgan, qadam qo'yan ostona sizning Vataningizdir. Inson qanday bo'lmasin, katta bo'lib qay darajaga yetmasin, qay manzilda yurmasin o'z uyidan qadam bosib xatlab o'tgan ostona gashtini ham o'rnini ham hech narsa bilan almashtira olmaydi. Chunki sizning bolalik onlaringiz, beg'ubor damlaringiz mana shu vaqtida boshlandi, mana shu vaqtida siz hayotni ko'ra boshladitingiz, past-u baland, egri va to'g'ri yo'llardan o'tdingiz. Katta hayotga qadam qo'yan bo'lsangizda, sizni bu hayotga olib kirgan o'sha jajji qo'llaringizdan tutgan insonlarni hech ham unutmasligingiz kerak. Hayot juda katta matabdir. Bu matabda siz dunyoni, insonlarni, qiyinchiliklarni, baxtni, quvonchni, dardni, hasratni ko'ra boshlaysiz, har qanday vaziyatda hayot sizni tarbiyalaydi, ulg'aytiradi va shunday qilib o'zingizni kelajak avlod uchun tayyorlaysiz. Sizning butun baxtingiz, jamiiyki umidlariningiz, barcha quvonchlariningiz hayot bilan bog'liqdir. "Doimiy tashvish, mehnat, kurash, yo'qchilik – bu zaruriy shart-sharoitlardir, hech kimsa bular haqida o'yashdan o'zini bir daqiqa ham chetga olmasligi kerak. Halol yashamoq uchun intilmoq, adashmoq, urinmoq, yanglishmoq, nimanidir boshlamoq va tashlab qo'ymoq va yana boshlab, yana tashlab qo'ymoq, doimo kurashmoq va yo'qchilikka chidamoq kerak. Xotirjamlik ruhiy pastkashlikdir", - deydi buyuk rus shoiri L.N.Tolstoy. Vataningdagi har bir tong otishini, o'z hayotingning ibtidosi deb bilgin va quyoshning har bir botishini o'z hayoting intihosi deb tushun. Shu kundalik va qisqa hayoting qandaydir xayrli ish, olingan savob amal, chiroyli duo va o'z ustingdan biron-bir g'alaba qozonishing yoki nimanidir o'rganishing bilan nishonlasin. Umring nihoyatda qisqa, mohiyat va e'tibor



bilan o'tkazish esa ajib bir baxtdir. Vatan shunday ulug' joy, ayniqsa, uni maroq bilan o'z oilang davrasida o'tkazish va har bir yaqining tabassumida baxtning jilovlanishi.

Agar do'stlar erur sodiq bir-birin qiyratib bo'lmas,
Agar qilg'il necha fitna alarni ayratib bo'lmas.
Demishlar: moru qushni bir qafasda asratib bo'lmas,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Vatan deb men bayon qildim, ayo do'stlar, muxammasni,
Vatanni kim ulug' bildi, aziz bildim men ul kasni.
Vatan deb jo'sh urar ersa ko'targum boshima xasni,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas...

Agar do'stlar sodiq va vafodor bo'lsa, bir-birlarini yo'q qilmaydi, qirib tashlamaydi. Ilon va qushni aslo bir qafasda boqib bo'lmaydi. O'z Vatanidan ayro ko'ngilni hech ham mammun ko'ra olmaysiz, uni xushnud qilolmaysiz. Do'stlarim, Vatanim uchun ushbu muxammasni bitdim, uning go'zalligini madh etish uchun yozdim. Vatansizlarga, o'z Vatani yo'qlarga nadomat bilan qarayman, u manzara juda achinarli. Boshi doim tik turgan mansab va davlatdor inson ham bu holatda boshini egib zor yig'laydi. Bobolarning o'tmishini hech qachon unutmang! Haqiqat subhidam otganda uni tush deb o'ylamang. E'tiqodsiz,adolatsiz va diyonatsiz insonlarni xush ko'rmang, ularni yoqtirmang, yaqiniga bormang. O'zbekistondek Vatanim borligi uchun hamisha faxrlanaman. Vatan onamdek mehribon va xokisor. Uning har bir qarich yeri muqaddasdir. Chetdan turib hamisha faxr bilan qarayman. Shu el, shu buyuk yurtning farzandi ekanligimdan hamisha faxrlanaman. Vatanim tinchligi uchun hamisha Yaratgandan iltijolar so'rayman. Shu aziz va muqaddas yurtning shoiri ekanligim uchun doim shukronalar aytaman. Ushbu she'rda qisqacha shunday ma'no uyg'unlashgan. Shoир tilidan aytilgan bu misralar chin qalbdan chiqqan satrлardir. Barcha so'zlar chiroyli qilib ishlatilgan va shoир tilidan maromi bilan sayqallangan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ta'kidlaganidek, "Abdulla Oripov she'riyatining bugungi ma'naviyat va ma'rifat taraqqiyoti bosqichi muhim ahamiyatga egadir. Uning eng ta'sirchan va Vatanimizga bo'lgan sof tuyg'ularini, o'zgacha mehrini bildirib turuvchi she'ri bu O'zbekiston qasidasи" dir.

Shoirning O'zbekiston qasidasi hajman salmoqli, har biri 10 satrlik 14 banddan iborat. Jami 140 satrni tashkil etadi. Banddagи toq va juft satrlar o'zaro qofiyalanib kelgan. Har bir bandning so'nggi bayti o'zaro qofiyalanadi. Abdulla Oripov bu she'rni g'oyat muhim mavzu bo'lgan ona-Vatanimiz sha'niga bag'ishlab yozgan. Shoир yurti haqida she'r bitmoqchi. Uni dunyoning eng go'zal va jannatmakon maskanlarga qiyoslab ko'rsatmoqchi. Bu yurt g'oyatda beqiyos. Yo'q, unday joy yo'q, yurtiga qiyoslab bo'la oladigan maskanning o'zi yo'q. Bu yurt - beqiyos. U - bitilmagan doston. Uni ta'rif qilmoqqa qalam ojizlik qiladi va qalam siyohlari yozganing sari tugab qoladi. She'rning satrlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, shoир o'z ona-Vatanini madh etish uchun qo'liga qalam olgan mahali Vatanini



ta'riflashga hech qanday so'z topa olmaydi. Bu haqida yozishga hattoki qalamim ham ojiz deb yozadi. Qasidaning har bir bandi "O'zbekiston – Vatanim manim!" degan g'ururbaxsh va ohangrabo satr bilan yakunlanadi. Hamid Olimjon bu yurtning ko'klamini qalamga olgan edi va dovrug'i olamga yoyildi. Uning yurti shunchalar go'zal va shunchalar sehrlidir. Shoир xayolidan asrlar "husn-u chiroyini ko'z-ko'z etib" o'tadilar. Muallif yana bir buyuk zot ustida to'xtadi. U – Beruniy! O'zining necha asrlik kashfiyotlari bilan hozirgacha dunyonи hayratga solib kelayotgan buyuk ajdodimiz. U X. Kolumbdan salkam besh yuz yil oldin Amerika qit'asini bashorat qilib bo'lgan edi. Hind okeani sohillarida uzoq tekshirishlar olib borib, bu suvlarning olis bir materikdan qaytishini taxmin qilgan edi. Shuningdek, u Amerika bo'lib chiqdi. Uning kashf etilishi shuhrati esa Kolumbga o'tib ketdi. Shoирning Kolumbda alami borligi shuni ifodalaydi. Yurt tarixida yana bir porloq siymo borki, uni aslo chetlab o'tib bo'lmaydi. Bu – g'azal mulkining sultonи, hazrat Mir Alisher Navoiy. Bu ko'hna dunyo juda ko'p jahongir va buyuklarni ko'rdi. Lekin so'z mulkining jahongirlari juda kam edilar. Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir, davlat arbobi, dunyonи o'z qalami bilan zabit etgan va dunyonи chamanzorga aylantirgan siymo kabi ulug'lanadi. Bu zamondoshlarning ajdodi bo'lishni o'zi ham bir faxrdir. Bu buyuk shaxsiyatlarning yaratuvchisi "baridan buyuk", "baridan suyuk" katta xalqdir. Shoир keyingi bandlarda mana shu buyuk va suyuk ona xalqining timsolini go'zal qilib yaratadi. Bunday buyuk farzandlarni jahonga yetkazib bergen, ularning shon-sharafini asrlardan asrlarga olib o'tgan mana shu xalqdir. Uning birinchi fazilati farzandlariga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatidir. Shoир xalq tarixiga shu jihatdan bir nazar tashlaydi. Ko'z oldimizda xalqimizning o'tda kuymas, suvda cho'kmas timsoli paydo bo'ladi. Kimlar uning tepasiga ot o'ynatib kelmadilar. Hattoki, dovrug'ingga hasad qilib Chingiz keldi. Seni dunyodan yo'qotmoq qasdi bilan keldi. Jaloliddin samani bo'lib, daryodan sakrab o'tding, omon qolding. So'ng inqilob keldi. U ham katta ofat edi. Chora istab faryod qilding. Shahidlarning qirmiz qonidan qora tunlaring alvon bo'ldi. So'ng fashist keldi. Afsuski, yana qon oqdi. Lekin sen o'lmaoding, o'chmading. Seni hech qanday dushman yo'qota olmadi. Yondirib kultepaga aylantirilgan Vatan xarobalari ostidan har gal afsonaviy samandardek chiqib kelaverding... Shu tariqa Vatan va millat tushunchasi bir-biriga o'tib, bir-birini to'ldirib boraveradi, hech qachon yo'qolmaydi. Darhaqiqat, o'zbek degani bu O'zbekistondir, O'zbekiston deganda esa buyuk o'zbek xalqi ko'z oldimizga keladi va gavdalananadi. Bu she'r yana bir mashhur shoirimiz Erkin Vohidovning —O'zbegim qasidasi bilan qariyb bir xil vaqtida yozilgan bo'lib, bu xalqimizning o'zligini anglashga, milliy iftixorimizning yuksakligi va Vatanimizning gullab-yashnashi uchun juda katta yordam berdi.

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o'z yurtin butun —
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o'lna bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori:



Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Yurmasman hech behishtni izlab,
Topolmasam chekmasman alam.
O'tirmasman ertaklar so'zlab,
Musallo deb yo'nmasman qalam.
Ko'klamingdan olib sururni,
Dovrug' soldi ustoz Olimjon,
G'afur G'ulom tuygan g'ururni
Qilmoq mumkin dunyoga doston.
Olis tarix qadamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim...

Abdulla Oripovning ushbu mashhur "O'zbekiston" she'rida qaratqich kelishigi qo'shimchasi (-ning) shaklini o'zgartirib, ya'ni "mening" o'rniga "manim" tarzida qo'llashi ham, aynan, she'rning badiiy qiymati oshishiga xizmat qilgan, ijodkorning so'z qo'llash mahoratining kuchliligini belgilab bergen. Ora-orada takrorlanib keladigan "O'zbekiston Vatanim manim" satri o'z haqiqiyligi, jonliligi shuningdek, bu misradagi ikki so'zning (Vatanim, manim) o'zaro ichki qofiyalanib kelishi kuchli emotsiyani paydo qiladi. Shoir aynan shu she'rida: "Balki ustoz Oybekdek to'lib, Yozajaksan yangi bir doston, Balki Habib Abdulla bo'lib, Sahrolarda ochajaksan kon", degan misralar mavjud. E'tibor qilinsa, adabiy tilga norma-mezonlariga bo'limgan "-jak" grammatik qo'shimchasi asosan o'g'uz lahjasida keng foydalilanildi. She'riy misrada qo'shimchaning "yozajaksan", "ochajaksan" tarzida anormal qo'llanishi til badiiyatiga xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda oddiy ko'ringan birgina grammatik qo'shimcha ham she'riy asarning badiiy tili masalasida o'z ahamiyatiga ega. Shu jihatdan qo'llanilgan bu so'z va misralar she'rning yanada jozibaliroq, mukammal va badiiy tasvirning go'zal bo'lganidan dalolat beradi.

Yangi O'zbekiston ma'rifatli jamiyatini yaratishda yoshlarning o'mi juda beqiyosdir. Bugun yoshlar uyg'onmoqda, jamiyatimiz uyg'onmoqda. Ma'naviy uyg'oq jamiyat bu, hech shubhasiz, qudratlari kuchdir. Yangi O'zbekiston – bu, avvalo yangicha: iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. Yangi O'zbekistonni barpo etish, bu shunchaki insonlarning orzu-havaslari emas, balki maqsad qanchalik aniq qo'yilgan bo'lsa, unga erishish borgan sari qiyin bo'lgani bilan erishilgan natija ham shunga yarasha tengsiz baxtdek buyuk hisoblanadi. Mustaqillik yillarida ko'hna tariximiz, boy merosimiz, milliy davlatchiligidimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag'rikenglik hamjihatlik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi yuragimizning tub-tubidan o'rinn oldi. Darhaqiqat, istiqlol tufayli o'zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O'zbekistonning bor bo'y-bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkonи ochildi. Ozodlik bois bizni jahon tanidi, xalqimizning fidokorona mehnati, yoshlarimizning g'ayrati, azm-u shijoati ila vatanimizning shon-shuhratni olam uzra yanada kengroq yoyilmoqda. Hurriyat bergen beqiyos imkoniyatlar negizida ertangi kunimiz – erkin va farovon kelajagimizni o'z qo'llimiz



bilan bunyod etmoqdamiz. Mamlakatimizda mustaqillik bayrami xalqimiz tomonidan eng aziz va eng ulug‘ bayram sifatida keng nishonlanishi ona diyorimizdagи tinchlik, osuda hayot va barqarorlikning yorqin namunasi ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sharafiddinov O. She’riyat — qalb yolqini. „Hayot bilan hamnafas“ kitobida. Toshkent. Adabiyot va san’at nashriyoti. 1984.
- 2.Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O‘qituvchi“, 1999.
- 3.Qo‘shtonov M., Suvon M.. Abdulla Oripov. Toshkent: „Ma’naviyat“, 2000
- 4.Shavkat Mirziyoyev: “Erkin Vohidov, Abdulla Oripovning o‘rni bilinayotganini his qildim” nutqi-2018
- 5.Abdulla Oripov. Mitti yulduz.-Toshkent 1965
6. “Oltin-nashr” nashriyoti.2021
7. O‘zbekiston adabiyot va san’at gazetasi.2021-yil 10-dekabr.